

MASHRAB IJODIDA IJTIMOIIY MUAMMOLAR TANQIDI VA TALQINI

Nabijonova Madinabonu Ulug'bek qizi

NamDPI, Ijtimoiy fanlar fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15860365>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Boborahim Mashrab yashagan davr hamda uning shoir ijodiga ko'rsatgan ta'siri to'g'risida, shaxs va jamiyat muammolariga oid shoir asarlari, umuman, Mashrabning o'sha davr va ijtimoiy holatga munosabati haqida so'z boradi. Hozirgacha Mashrab shaxsiyati va uning ijodiy faoliyati tadqiqotchilar tomonidan atroflicha o'rganilgan va qator natijalarga ham erishilgan, biroq shoirning turli sarguzashtlarga boy hayoti va xalqchil, sof, samimiy she'riyati zamiridagi mohiyat, ijtimoiy ohanglar aks etgan asarlari to'laqonli o'rganilishi kerak. Mazkur maqola bu xususdagi izlanishlar, tahlillar va metodlar asosida olingan natijalarga asoslangan.

Kalit so'zlar: Mashrab ijodi, tasavvuf, xalq, ijtimoiy masalalar, xalqchilik, mumtoz janrlar, badiiy tasvir, ma'naviy kamolot.

Annotation. This article talks about the period in which Boborahim Mashrab lived and his influence on the poet's work, works on personal and social problems, and Mashrab's attitude to that period and social situation in general. Until now, Mashrab's personality and his creative activity have been thoroughly studied by researchers and a number of results have been achieved, but the poet's life full of various adventures and the essence and social tones of the folk, pure, sincere poetry should be fully studied. This article is based on the results obtained on the basis of research, analysis and methods.

Key words: Mashrab's works, sufism, people, social issues, folkism, classical genres, artistic image, spiritual maturity.

Namanganlik tasavvuf adabiyotining yetuk namoyandasi Mashrab ijodini o'rganish mobaynida nafaqat ilohiy ishq, romantik ko'tarinkilik ruhi, inson qadri, sharafi, ma'naviy kamoloti, ezgulik va go'zallik madh etilgan she'rlarni, balki chuqur ijtimoiy yo'nalishga ega, jamiyatdagi voqea-hodisalarning, xalq dardi va muammolarining talqini o'laroq yaratilgan yuksak asarlarni ham o'qish mumkin. Shoir faqat otashzabon ijodkor bo'lib tanilibgina qolmay, ayni zamonda adolatsizlik va zo'ravonlik, qabohat va razolat bilan aslo kelisha olmaydigan dovyurak shaxs sifatida ham dong taratgan. Xalq tasavvurida u johil amaldorlar ustidan kuluvchi, axloqan, tuban kishilarni, munofiq din arboblarni ayovsiz fosh etuvchi botir so'z, tadbirkor kurashchi tarzida shakllangan: oddiy xalq Mashrab timsolida o'zining yorqin yulduzini, xalq dardini baralla ayta oladigan otashin siymoni ko'rgan.[1:7] Boborahim Mashrab ijodini o'rganish vositasida Mashrab yashagan XVIII-XIX asr hayoti, xalqning ijtimoiy holatini baholay olish mumkin.



Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Boborahim Mulla Vali o'g'li Mashrabning hayoti va ijodiy faoliyati haqida axborot beruvchi tarixiy manbalar nihoyatda kamligi bois shoirning adabiy merosi xususida ham aniq ma'lumotlar yo'q. Uning nomi XVIII-XIX asrlarda tuzilgan ayrim tazkiralarda (Muhammad Bade' Malehoning "Muzakkir ul-ashob", "Tazkirayi Fahmiy", "Musavvayi Abdushshukur Ziyo", "Tazkirayi avliyoyi Majzub Namangoniy" zikr etiladi.[2:35] U o'z asarlarini to'plab, biror majmua tuzganligi ayon emas. Faqat "Devoni Mashrab", "Devonayi Mashrab", "Eshoni Mashrab", "Hazrati shoh Mashrab" nomlari ostida xalq orasida qo'lyozma va toshbosma shaklida tarqalgan qissalardangina shoirning umri va ijodi haqida o'rganish mumkin. Ammo ular ham yillar davomida o'zgartirish va tuzatishlarga uchragan, turli to'qimalar, yangi-yangi rivoyat va latifanamo lavhalar bilan to'ldirib borilgan. Shunday bo'lsa-da, Mashrab haqidagi qissalar shoir hayot yo'lini nisbatan to'la va bosqichma-bosqich o'zida jamlovchi adabiy-tarixiy manba sifatida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Biz maqolada tavsifiy, qiyosiy, badiiy-g'oyaviy tahlil metodlaridan foydalandik.

Tahlillar

Mashrab qisqa hayoti davomida har xil ko'rgiliklarni boshidan o'tkazib, jiddiy g'oyaviy ziddiyatlar orasida qoladi, qo'nimsizlikda kun kechiradi. Piri dargohidan quvilgach, 40 yillik umrini doimiy safarda, turli o'lkalarda darbadarlikda o'tkazadi. Olomonning soddaligi va qashshoq hayoti,ba'zi ruhoniylarning kirdikorlari va hiylagarliklari, tekinxo'r mulkdorlar, johil amaldorlarning zo'ravonliklari Mashrabning bir-qancha she'rlari vujudga kelishiga sabab bo'ladi:

Dilini tig'i sitamdin pora bo'lgan xalqni ko'rdim,
Tanu dardu alamdin yora bo'lgan xalqni ko'rdim,
Ko'zi vaqti sahar sayyora bo'lgan xalqni ko'rdim...

Shoirning bu tur asarlari qo'ldan qo'lga, og'izdan og'izga o'tib, tez tarqalgan. Xuddi shuning uchun ham Mashrabning biror shaharga kelishi izziz qolmagan, odil, kambag'al xalq uni quvonch-xursandchilik bilan kutib olgan. Mashrab yashagan so'nggi shahar Balxda ham shunday vaziyat bo'ladi, biroq hokim tabaqa va mutaassib shayx-mullalar Mashrabni jisman yo'qotishga harakat qiladilar va Mashrab Mahmudbiy Qatag'onning hukmi bilan dorga osiladi.[3:10]

Mashrabning hajm va janrlar jihatidan aniqlashtirilmagan badiiy merosi she'riyatning yana-da kengroq ijtimoiy mazmun va jangovar ruh kasb etishida,



adabiyotdagi xalqchillik va dunyoviylikning chuqurlashuvida, lirik turlarning takomillashuvi hamda badiiy san’atning kamolotga erishuvida yangi bir yuqori bosqichni tashkil etadi. Uning g’azal, mustazod, murabba, muhammas, musaddas, musabba, masnaviy, ruboiy, ta’rix kabi turli janrdagi asarlari shoirni ilohiy ishq kuychisi sifatida xalqqa tanitdi. Ayniqsa, uning g’azallari, mustazodlari va muxammaslari xalqning g’am-u hasratlariga hamdardlik hissi bilan yo’g’rilgan. G’azallaridan birida:

Azaldin men dili g’amgin xaloyiq xaylini sevdim! – deb yozgan edi.

Mashrabning juda ko’p g’azallari xalq qo’shiqlaridek jarangdor, jo’shqin va ta’sirchan, muxammas va musaddaslarida esa chuqur ijtimoiylik ustunlik qiladi, taqdirning kemtikligi va hayotning buzuqliklaridan, davr(charx, falak) va adolatsiz muhitning shaxs boshiga tinimsiz keltirayotgan jabr-u jafosidan shikoyat, ta’qib va tazyiqdan norozilik dardi miyeralarda, ammo qat’iy va keskin ifodalanadi. Mashrab qoldirgan ijodiy xazinada diniy va tasavvufiy g’oyalar ham sezilarli o’rin egallaydi. Shoir she’rlarida Allohning mavjudligi, bor-u birligi, barcha jonli va jonsiz mavjudotlarni yaratganligi uzil-kesil va qat’iy tan olinadi, Xudoning kuch-qudrati, taqdirning o’zgarmasligi va Mahshar kuni haqidagi ta’limot to’la qabul qilinadi, shu bilan birga, haqiqatgo’y shoir mutaassiblik, ko’r-ko’rona taqlidni qattiq qoralaydi, jaholat va bid’atga qarshi g’oyalarni ilgari suradi.

Ba’zi tadqiqotchilar Mashrabga inqilobchi, isyonkor shoir deya qarab, uni “isyonkor shoir sifatida zulm va razolat ildizlarini qirqish uchun yovuzlik va yomonlikka qarshi qalqon bo’lib, amaldorlarning kirdikorlariga qarshi o’z nafratini ochiq bildirgan, shuning uchun qalandarona kun kechirgan,” deb ta’riflaganlar.[1:5] Aslida, qalandar tasavvuf yo’liga kirib, faqat xayr-u ehson bilan kun kechiruvchi kishi bo’lib, Boborahim Mashrabning po’stin yopinishida dunyo hodisotlari-yu foniy azoblarning hech qanday ahamiyati yo’q. Shoir shunday deydi:

Murodingga yetay desang, qalandar bo’l, qalandar bo’l,
Sitam ahlin yutay desang, qalandar bo’l, qalandar bo’l.
Og’izdan dur sochay desang, qalandar bo’l, qalandar bo’l,
Yomonlardan qochay desang, qalandar bo’l, qalandar bo’l.

Shoir she’riyatidagi ijtimoiy mazmundorlik va kuchli tanqidiy yo’nalish shoirning ilg’or dunyoqarashi, xalqchil falsafasi, zamonasidagi salbiy voqealarga aniq, tanqidiy munosabatidan shakllangan. Shuni qat’iy aytish lozimki, chuqur ijtimoiylik va kuchli tanqidiy munosabat Mashrabning umumijodiy faoliyatida ustuvorlik qilgan va yaratgan ko’pdan ko’p asarlarining asl fazilati darajasiga



ko'tarilgan. Demak, Mashrab mavjud ijtimoiy tuzumga qarshi she'rlari bilan qilich ko'tarib jangga chiqqan, biroq uning darveshligi, qalandarligi, aniqroq aytilsa, uning dunyoqarashining aql ishonmas darajada keng bo'lganligi yana borib ilohiyotga taqaladi. Yuqoridagi satrlardan nafaqat Mashrabning qalandarlik yo'lini tanlagani mohiyatini anglash mumkin, qolaversa, lingvistik nuqtayi nazardan qaraganda, mazkur misralarda hozirgi adabiy tilimizga nomuvofiq biror so'zning mavjud emasligi seziladi. Demak, XVIII-XIX asrdagi Namangandagi badiiy she'r tili bugungi o'zbek tili meyorlariga nihoyatda yaqin bo'lgan. Mashrabning boshqa she'r-u g'azallarida ham tilga oid mazkur xususiyatlar ko'p kuzatiladi, shoir o'zbek tilining butun jozibasini xalqona ohanglarda tarannum qila oldi. Shahar va qishloqlardagi ezilgan omma hayotini badiiy tasvirlash Mashrab ijodida yetakchi mavzulardan biri bo'lgan. Doimo xalq ichida yurib, uning yashash sharoiti va orzu -intilishlaridan yaqindan xabardor bo'lgan Mashrab mashaqqatli hayotni haqqoniy badiiy lavhalarda mahorat bilan tasvirlaydi. Bir o'rinda:

O'zimdek xonavayronlarni ko'rsam, zor yig'larman! –

deya baxtiqaro xalqiga to'la xayrixoh ekanligini alohida ta'kidlaydi. U mahzun va xasta xalqining boshiga sitam toshlari otilsa, aslo bardosh qilolmasligi haqida so'zlaydi, ushbu misralardagi g'oya Alisher Navoiyning:

Menga qilsa yuz jafo, bir qatlar faryod aylamon,

Elga qilsa bir jafo, yuz qatla faryod aylaram, -

baytidagi xalqqa muhabbat va dardkashlik g'oyalari bilan mazmuniy bog'liqlikka ega. Alisher Navoiy ham o'z boshiga kelgan har qanday kulfatga chiday olishini, biroq eli, xalqiga qilingan birgina "jafo" uchun yuz barobar faryod chekishini tasdiqlar ekan, bu ikki misra Mashrab va Navoiy ruhiyatidagi birlik, yakdillik, ikki shoir she'riyatidagi uyg'unlikka dalil bo'la oladi. Mashrab she'riyatida "ko'z yoshli", "baxti qaro", "dard ahli"ga, " g'am xayli"ga hamdardlik, rahm-shafqat g'oyalari qayta-qayta takrorlanishi bejiz emas. Mashrabning "Tanho" radifli muxammasida bevosita xalq va uning turmush sharoitini haqqoniy ko'rsatuvchi o'rinlar ko'rinadi.

Xulosa

Umuman olganda, Boborahim Mashrab ijodida hali o'rganilmagan, o'rganilishi kerak bo'lgan xususiyatlar salmoqli, uning she'rlarini o'sha davr ijtimoiy hamda ijodiy muhitiga bog'lab o'rganish, shoir aytgan so'zlarning o'sha makon va zamondagi ahamiyatini to'la anglash izlanuvchilar uchun muhimdir. Shoirning asarlari, avvalo, Yaratganga sof muhabbatni otashin, oshiqona kuylashi bilan, qolaversa, XVIII-XIX asrdagi o'zbek millatining fojiali hayoti va





xalq ruhiyatini haqqoniy tarzda aks ettirishi bilan adabiyotimizda yuksak martabani egallagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Rahmatova F. Boborahim Mashrab va tasavvuf-tariqatlari // Academic research in Educational Sciences. – T.: 2022. - B.5- 7.
 - 2.Boborahim Mashrab, Kimyo, / Nashrga tayyorlovchi Hoji Ismatulloh Abdulloh. – Namangan: Namangan,1999. – B, 3.
 - 3.Ichoqova Z. Mashrab. – T.: Abu matbuot – konsalt, 2011. – B,11.
 - 4.Boborahim Mashrab. Alifni dilga jo qilmoqni bismillohdan o'rgandim./ Nashrga tayyorlovchi Hoji Ismatulloh Abdulloh. – Namangan, 1999. – B. 57-58-59-63.
 - 5.Mashrabning ijtimoiy-falsafiy qarashlari, Toshkent: O'zFA Falsafa va huquq instituti, 1995. – B 92-94.
 - 6.Ismoilov S. Komil inson: Tarixiylik va zamonaviylik. –Toshkent, 2007. – B, 21.
 - 7.Mashrab. Bibliografiya. Tuzuvchi U.Qo'ziyev. – Namangan: "Namangan" nashr., 2023.
 - 8.Qo'ziyev U. Rahimbobo Mashrab ijodi tadqiqining bugungi holati borasida // NamDU Ilmiy axborotnomasi, 2022, №2. – B.412-417.
- arboblar.uz

